

O‘ZBEKISTONDA BEVOSITA SOLIQLARNI HISOBLANISHI VA UNDIRILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Maxmudov Muhiddin O‘tkirbek o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

M.Makhmudov1997@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bevosita soliqlarning bevosita soliqlarni hisoblanishi va undirilish amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq ma‘murchiligi, raqamli iqtisodiyot, foyda solig‘i, axborotlashgan jamiyat, axborot, tarmoq, iste‘molchi, axborot maxsulotlari.

Kirish: Bugungi kunda bevosita soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, ularning uslubiy jihatlari, undirish mexanizmlari hamda budjetga tushishi bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy-nazariy tahlillarni amalga oshirdik, bu bo‘yicha bir qator ilmiy xulosalarni chiqardik. Shakllantirilgan ilmiy xulosalarimizdan ma‘lum bo‘ldiki, bugungi kunda bevosita soliqlarni hisoblash va ularni budjetga undirish mexanizmlarida bir qator muammolar mavjud, ayrim jihatlarni esa, yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Bevosita soliqlarni hisoblash va ularni budjetga undirish mexanizmlaridagi muammolarning yechimlari hamda yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy yondoshuvlarimizni keltirib o‘tamiz. Mazkur ilmiy yondoshuvlarimizni bevosita soliqlar hisoblangan foyda solig‘ini hisoblash va undirish bilan bog‘liq ilmiy-uslubiy takliflarimizni ilmiy asoslashga hamda bu soliq turlarini davlat budjetiga kelib tushishini prognoz qilishni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflarni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilamiz.

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarish jarayonidagi dastlabki muammolardan biri bu -foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish bazasiga tovarlarning (xizmatlar) bozor qiymatidan

kelib chiqib tuzatish kiritish amaliyoti mavjud bo'lmaganligi sababli ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq hisobotlarida soliq bazasini kamaytirib ko'rsatish orqali foyda solig'idan qochish holatlari ortib bormoqda edi.

O'tkazilgan tezkor tahlillarga ko'ra, 2022-yilda 10,2 mingta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan tovarlar (xizmatlar) qiymatini o'rtacha bozor qiymatiga nisbatan 2,5 trln.so'mga kam ko'rsatilganligi, natijada budjetga 300 mlrd.so'mdan ortiq foyda solig'i yo'qotilayotganligi aniqlangan.

1. Foyda solig'i bo'yicha teng raqobat muhitini yaratish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash faktlarining oldini olish va tovar (xizmat)larning ma'lum bir guruhini soliqqa tortish uchun soliq organlari tomonidan bozor narxlarini qo'llash maqsadida, Soliq kodeksining 297-moddasi 251-band bilan to'ldirilib, unga ko'ra Soliq kodeksning 248-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan hollarda va tartibda soliq bazasiga tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritish natijasida olingan daromad foyda solig'ini hisoblab chiqishdagi jami jami daromadlar tarkibiga kiritilishi amaliyotga joriy etildi.

2. Zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari yuzasidan zaxira fondlariga ajratmalar va bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida ayrim xizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar miqdori va tartibi belgilanmaganligi sababli foyda solig'i bazasini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqarayotgan edi.

Mazkur muammoning ijobiy yechimi sifatida Soliq kodeksining 315-moddasiga qo'shimcha kiritilib, unga ko'ra zaxira fondlariga ajratmalar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, banklar tomonidan – qonunchilikda belgilangan normaning 80 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda hamda bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir litsenziya asosida bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va sug'urta tashkilotlari tomonidan – qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan yuqori bo'lmagan miqdorda xarajatlar jumlasiga kiritilishi belgilanib, amaliyotga joriy etildi.

3. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezidentlarning soliqni to'langandan keyin o'z tasarrufida qoladigan sof foydasidan soliq to'lash yoki to'lamaslik tartibi aniq belgilanmaganligi ayrim norezidentlar bilan soliq organlari o'rtasida o'zaro sudlashuvlar yuzaga kelmoqda edi.

Ushbu muammoni yechimi sifatida ilmiy tadqiqot davrida ishlab chiqilgan takliflarimiz asosida, Soliq kodeksining 315-moddasiga qo'shimcha kiritilib, unga ko'ra sof foyda deganda jami daromad va doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq tushunilishi, bunda joriy soliq davri uchun sof foyda ayni bir doimiy muassasa doirasida avvalgi soliq davrlarida olingan zarar (zararlarning) umumiy summasiga, bosharti ilgari bunday zarar (zararlar) sof foydani aniqlashda hisobga olinmagan bo'lsa, kamaytirilishi hamda sof foydadan olinadigan soliqning hisoblab chiqarilgan summasi soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay budjetga to'lanishi belgilandi. Natijada, 2022-yilda mahalliy budjetlar uchun 630 mlrd.so'mdan ortiq qo'shimcha mablag'lar bazasi yaratildi.

4. Foyda solig'i bo'yicha soliq stavkalaridagi nomuvofiqliklar ayrim soliq to'lovchilar uchun soliq yukini keskin oshib ketishiga va soliqqa tortishda adolatlilik tamoyilining buzilishiga olib kelmoqda edi.

Muammoni ijobiy hal etish maqsadida, "Navoiy KMK" AJ va "Olmaliq KMK" AJ uchun foyda solig'i stavkalarida soliq solish bazasining tovar (ish, xizmat) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning 15 foizidan oshgan qismiga belgilangan ustamasiga nisbatan foyda solig'ining amaldagi 75 foiz stavkasi o'rniga 50 foizli stavkasi belgilash taklifi ishlab chiqildi. Mazkur takliflar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston respublikasining "2022-yil uchun o'zbekiston respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-73-son qarorida o'z aksini topib, foyda solig'i stavkasi soliq solish bazasining qolgan qismiga 50 foiz qilib belgilandi. Natijada, 2022-yilda 7,8 trln.so'm mablag' ushbu korxonalar ixtiyorida qoldirildi.

5. Amaliyotda soliq to'lovchilar tomonidan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish yoki o'z vaqtida foydalanmaslik, shuningdek bo'lmasdan imtiyoz muddatlarini noto'g'ri qo'llash holatlari oqibatida soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida turli xil tortishuvlar keltirib chiqarmoqda. Bu aksariyat hollarda, maxsus iqtisodiy zona hududida faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda yuzaga kelib, soliq imtiyozlarini boshlanish va amal qilish muddatlarida noaniqliklar mavjud edi.

Ushbu muammoni hal etish maqsadida ilmiy tadqiqot davrida, maxsus iqtisodiy zona hududida foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddati ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e'tiboran hisoblanishi, foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning foydalanilmay qolgan qismi 2020-yil 1-oktyabrga qadar maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining reestriga kiritilgan ishtirokchilarga nisbatan amalda bo'lgan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan investitsiyalarning hajmiga qarab, mazkur ishtirokchilar reestriga kiritilgan paytdan e'tiboran 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga to'liq qo'llanilishini belgilash taklifi ishlab chiqildi.

6. Bugungi kunda, soliq to'lovchilar aktivlaridan amortizatsiya xarajatlarini turkumlash va amortizatsiya muddatlarini qisqartirish orqali foyda solig'i bazasiga muvofiqlashtirish. Jumladan, ruda jismlarining bosqichlari yoki tarkibiy qismlari kesimidagi hajmlarga mutanosib ravishda hisoblangan amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini hosil qilish hamda amortizatsiya qilinadigan aktiv guruhi bo'yicha to'plangan xarajatlari summasi belgilanmaganligi soliqqa tortishda turli noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur masalani hal etish maqsadida, ilmiy tadqiqotimiz davrida soliq to'lovchining soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatiga muvofiq ruda jismlarining bosqichlari yoki tarkibiy qismlari kesimidagi hajmlarga mutanosib ravishda hisoblangan amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini hosil qilish hamda amortizatsiya

qilinadigan aktiv guruhi bo'yicha to'plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqarilishi yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

7. Amaliyotda soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda foyda solig'i bo'yicha avans to'lovlari yuzasidan har oylik bo'nak to'lovini hisoblab hisobot taqdim etmagan hollarda soliq organlari mavjud ma'lumotlar asosida bo'nak to'lovlari bo'yicha foyda solig'ini hisoblab chiqishi va undirishi belgilangan. Bunda soliq to'lovchi kelgusi chorak uchun bo'nak to'lovlari bo'yicha hisobotini joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqib kelgusi chorak birinchi oyining 10 sanasidan kechiktirmasdan soliq organiga ma'lumotni taqdim etish belgilangan. Bu esa amaliyotda bo'nak to'lovlari hisoblashda ma'lumotlar to'plash doirasini chegaralanishiga yoki kutilayotgan foydani aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Muammoni yechimi sifatida ilmiy tadqiqotimiz davomida, har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshirilganda soliq to'lovchi kelgusi chorak birinchi oyining 15 sanasidan kechiktirmasdan joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo'nak to'lovlari summasi to'g'risida soliq organlariga ma'lumotnoma taqdim etish huquqini berish bo'yicha taklifi ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar.

Foyda solig'i bo'yicha soliq stavkalaridagi nomuvofiqliklar ayrim soliq to'lovchilar uchun soliq yukini keskin oshib ketishiga va soliqqa tortishda adolatlilik tamoyilining buzilishiga olib kelmoqda. Amaliyotda soliq to'lovchilar tomonidan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish yoki o'z vaqtida foydalanmaslik, shuningdek bo'lmasdan imtiyoz muddatlarini noto'g'ri qo'llash holatlari oqibatida soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida turli xil tortishuvlar keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarning yechimlariga qaratilgan yuqorida keltirilgan ilmiy-amaliy takliflarimiz to'g'ri soliqlarni adolatli undirish mexanizmlarini ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2018-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi"gi Qonuni, 2013-yil 16-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevraldagi "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5214-sonli farmoyishi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi "Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori PQ-3756-sonli qarori.
6. A.Vahobov, A.Jo'rayev Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'rayev. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009. –52-53 bet.
7. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma / Mual.: A. Jo'rayev, O. Meyliyev, G'. Safarov. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. –90-63 betlar.
8. Bazarov Q. T. Korxonalar foydasidan olinadigan soliq mexanizmidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 1998-y. 7-8 b

<https://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti

<https://www.soliq.uz>-(Soliq qo'mitasi sayti)

<https://www.imv.uz>- (Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti)